

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING JAHON HAMJAMIYATIGA QO'SHILISHI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7806364>



ELSEVIER



Axmedova Marg`uba
Andijon pedagogika kolleji direktori Tarix fani o'qituvchisi



Abstract: Ushbu maqolada . XXI asr bo`sag`asida O'zbekiston davlat mustaqilligini qo`lga kiritib jahon hamjamiyatga kirish, integrasiyalashish tomon yuz tutganligi, O'zbekiston Respublikasi o'z milliy manfaatlari asoslangan holda ochiq, o'zaro manfaatli va konstruktiv tashqi siyosat olib borganligi haqida so'z boradi.

Keywords: O'zbekiston Respublikasi, mustaqillik, jahon hamjamiyati, manfaat, siyosat, hukmronlik.

Received: 22-03-2023

Accepted: 22-03-2023

Published: 22-03-2023

About: FARS Publishers has been established with the aim of spreading quality scientific information to the research community throughout the universe. Open Access process eliminates the barriers associated with the older publication models, thus matching up with the rapidity of the twenty-first century.

Xalqimiz mustaqillik deb atalmish ezgu va muqaddas orzuning ro`yobga chiqishi uchun asrlar mobaynida intilib, kurashib keldi. 1991 yil 31 avgustdan boshlab halqimiz taqdirida keskin burilish yasagan, butunlay yangi taraqqiyot davrini boshlab bergen istiqlol davri tarihi boshlandi. 130 yillik Rossiya mustamlakasiga mahkum etilgan davrning ilgarigi zamonlardan farqi shuki, shu vaqtda ayniqsa, sho`rolar hukmronligi yillarda halqimiz tashqi dunyodan butunlay uzib qo`yildi. Garchi katta mamlakatning asosiy qonuni hisoblangan «SSSR Konstitusiyasi» da O'zbekiston boshqa o'n to`rtta «qardosh va jondosh» milliy respublikalar singari «teng huquqli», «mustaqil», «suveren» davlat sifatida ta`rifu-tavsif etilsa-da, amalda ko`zga ko`rinmas, ming va million hil ustalik bilan «to`qilgan», to`rlar bilan qo`l-oyog`i bandi etilib quyilgan edi. Mustabid sovet tuzumi davrida O'zbekiston tashqi iqtisodiy aloqalarni asosan sosialistik mamlakatlar bilan, sobiq markazning yo`l-yo`riqlari bilan amalga oshirar, respublikaning o`zi tashqi bozorga mustaqil ravishda chiqish huquqiga ega emas edi. Respublikaga olib kelinadigan mahsulotlar, respublikadan chiqarila-digan mahsulot hajmiga nisbatan ancha ortiq edi. 1990 yil respublikaga 14661,8 mln. so`mlik mahsulot olib kelingan bo`lsa, chetga chiqarilgan mahsulot hajmi 9351,5 mln. so`mga teng bo`lgan. XXI asr bo`sag`asida O'zbekiston davlat mustaqilligini qo`lga kiritib jahon hamjamiyatga kirish, integrasiyalashish tomon yuz tutdi. Jahon amaliyotidan ma`lumki, har bir mustaqil davlat, ayniqsa mustaqil taraqqiyot yo`liga kirgan mamlakatlar, hech qachon o`z qobig`iga o`ralib rivojlanmagan. Aksincha, mustaqil rivojlanish yo`lini tanlashi bilanoq jahon hamjamiyatga qo`shilish orqali o`z taqdirini belgilagan (O'zbekistonning jahon hamjamiyatga

qo`shilish davri g`oyat bir murakkab va qaltis davrga to`g`ri keldi. Sobiq ittifoq tarqalib ketgach dunyo asosan ikki qutbli (SSSR va AQSh) bo`lgan bo`lsa, endi ko`p qutbli bo`lib qolgan edi. XX asr o`z g`avg`olari, to`palonlarini, qirg`inlarini biz yashayotgan XXI asrga meros qilib qoldirib hayr ma`zur qilayotgan bir davrga to`g`ri keldi. O`zbekiston geosiyosiy jihatdan qulaylik tug`diruvchi imkoniyatlar bilan birga, bu borada kiyinchiliklar tug`diruvchi bir qancha omillar ham mavjud edi. Garchi, tashqi siyosat sohasidagi an`analarimizning ildizlari uzoq moziyga borib taqalsa-da, mustamlaka davridagi yo`qotishlar natijasida, dastlabki paytlarda respublikamiz tashqi siyosat uritish tajribasiga ham, jahon diplomatiyasini biladigan kadrlarga ham ega emas edi. Tashqi siyosiy diplomatik, iqtisodiy va madaniy aloqalarni o`zi mustaqil boshlashga to`g`ri kelsada, respublika rahbariyati bu boradagi muammolarni echishga dadil kirishdi, uqorida ta`kidlab o`tilgan kiyinchiliklarni engib o`tib, qisqa davr mobaynida o`z o`rni va mavqeyiga ega bo`ldi.

O`zbekiston va jahon hamjamiyati munosabatlarining huquqiy – siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ma`naviy-ma`rifiy, ilmiy asoslari. O`zbekiston Respublikasining tashqi siyosati davlatimiz Konstitutsiyasiga, «Tashqi siyosiy faoliyat Kontseptsiyasi to`g`risida»gi va «O`zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari to`g`risida»gi qonunlarga va boshqa normativ-huquqiy hujjatlariga, hamda O`zbekiston Respublikasi Prezidentining dasturiy nutqlari va ma`ruzalariga, mamlakatimiz tomonidan imzolangan xalqaro konventsiya va shartnomalarga asoslanadi.

O`zbekiston Respublikasi o`z milliy manfaatlara asoslangan holda ochiq, o`zaro manfaatli va konstruktiv tashqi siyosat olib boradi. Respublikaning zamonaviy tashiq siyosiy kursi dunyoda va mintaqada shiddat bilan o`zgarayotgan vaziyat, hamda mamlakatning ichidagi keng ko`lamli o`zgarishlarga asoslanib shakllanadi.

O`zbekiston o`z mustaqilligining ilk kunlaridanoq milliy manfaatlarga asoslangan vahar tomonlama puxta o`ylangan tashqi siyosat olib bormoqda. O`zbekiston tashqi siyosati jahon hamjamiyati tomonidan keng e'tirof etilib, malaatimizning xalqaro maydondagi obro'-e'tiborini, uning mintaqaviy va xalqaro masalalarda roli va ahamiyatini mustahkamlab kelmoqda. O`zbekiston o`z mustaqilligining ilk kunlaridanoq milliy manfaatlarga asoslangan va har tomonlama puxta o`ylangan tashqi siyosat olib bormoqda. O`zbekiston tashqi siyosati jahon hamjamiyati tomonidan keng e'tirof etilib, malaatimizning xalqaro maydondagi obro'-e'tiborini, uning mintaqaviy va xalqaro masalalarda roli va ahamiyatini mustahkamlab kelmoqda.

O`zbekiston Respublikasi bugungi kunda O`zbekistonni 170 dan ortiq davlat tan olgan, dunyodagi 130 ga yaqin mamlakat bilan rasmiy diplomatik

munosabatlar o'rnatilgan. Respublikada 88 ta chet davlat vakolatxonalari ro'yxatdan o'tgan, 24 ta hukumatlararo tashkilot, 13 ta nohukumat tashkilotlari ishlab turibdi. Dunyodagi 30 dan ortiq davlatda O'zbekiston elchixonalari va moliya tashkilotlari teng huquqli asosda ishlab turibdi. Jahonning 140 mamlakati bilan savdo-iktisodiy munosabatlar o'rnatilgan. Toshkentda 35 mamlakat o'z elchixonasini ochgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasining konstitusiyasi. Toshkent: O'zbekiston, 1992 y.
2. Karimov I.A. Buyuk kelajagimizning huquqiy kalati.-Toshkent: Sharq, 1993y.
3. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo`sag`asida: Xavfsizlikka tahdid, taraqqiyot kafolotlari va barqarorlik shartlari.-Toshkent: O'zbekiston, 1997 y.
4. Karimov I.A. Tarihiy hotirasiz kelajak yo`q.-T.: Sharq 1998 y.